ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

УДК: 494.375:371.3 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2051

ONA TILI FANINI O‘QITISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

M.A.Kenjayeva
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 6-sinf o‘quvchilarda ona tili fanida tayanch va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim texnologiyalarning o‘rni, qo‘llanilish ahamiyati, tanishuv texnologiyasi natijasida o‘quvchilarning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, muloqot yuritishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga yordam berishi, hamda matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: tayanch va lingvistik kompetensiya,tanishuv texnologiyasi, matn tahlili, muomala qilish ko‘nikmalari, o‘quvchi qobiliyati, do‘stona munosabat va erkin fikrlash.

Развитие базовых компетенций и использование образовательных технологий в обучении родному языку

Аннотация. В этой статье обсуждается роль образовательных технологий в развитии базовых и лингвистических компетенций на родном языке учащихся 6-х классов, важность их применения, использование технологии знакомств, чтобы помочь учащимся реализовать свои способности, преодолеть барьеры в общении, а также улучшить анализ текста и навыки общения.

Ключевые слова: базовая и лингвистическая компетенция, технология знакомств, анализ текста, навыки общения, умение читать, дружелюбие и свободное мышление.

Development of basic competences and use of educational technologies in teaching mother tongue science

Abstract. This article discusses the role of educational technologies in the development of basic and linguistic competencies in the native language of 6th grade students, the importance of their application, the use of acquaintance technology to help students realize their abilities, overcome barriers to communication, and improve text analysis and communication skills.

Key words: Basic and linguistic competence, dating technology, text analysis, communication skills, reader ability, friendliness and free thinking.

Jahonning bir qancha ilg‘or mamlakatlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida tayanch va lingvistik kompetensiyaning inson muloqot amaliyoti va faoliyatidagi ahamiyati, tilni o‘rganishda testlardan foydalanishga kommunikativ yondashuvlar va uni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida ta’lim sifatini oshirish, modulli ta’limni tashkil qilish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy qilish orqali ta’limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasining tizimi ishlab chiqilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi bitimida dunyo miqyosida o‘quvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda [1;26-b].

Respublikamiz ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lishi, dahldorlik va ijtimoiy faollikni yanada rivojlantirish borasida ta’limning sifat samaradorligini oshirishga ahamiyat berilmoqda. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirishda, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori ta’lim-tarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[2;4-b].

Mamlakatimiz ta’lim tizimida 5–9-sinflar uchun ona tili fanidan ishlab chiqilgan tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: (A2), A2+

axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari: gazeta, jurnal, radio, televidenie, internet ma'lumotlari, lug'at, ma'lumotnoma (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli ravishda munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llay olish;

mavjud bo'lgan axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, audioeshittirsh moslamasi, ma'lumotnomalar (audio-video yozuv), telefon, fonogramma, kompyuter, elektron pochta) zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, yuborish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanish jarayonida mediamadaniyatga rioya qilish;

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: (A2), A2+

shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojlarga aylantira olish;

bir qancha badiiy asarlarda tasvirlangan, ko'rsatib o'tilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish va ulardan xulosa chiqarib, ibrat olish;

har bir xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini o'zi nazorat qilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho berish;

ilmiy, badiiy, publitsistik, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'atga doir kitoblarni muntazam ravishda o'qish, o'rganish va xulosa chiqarish, ba'zi holatlarda ulardan fikrining isboti hamda dalili sifatida amliyotda foydalana olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi: (A2), A2+

hozirda jamiyatimizda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarda daxldorlikni his etish, ularda faol ishtirok etish; maktabda va maktabdan tashqari badiiy yo'nalishdagi kecha va tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlov, musobaqalar) muntazam ishtirok etib borish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish; bir necha badiiy asarlarda turli-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma'naviy, insoniylik o'ziga xos bo'lgan fazilatlar va xususiyatlar(halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd)ga qarab xolis va jiddiy mulohaza[9] yuritish;

badiiy asarlarda aks ettirilgan yuksak ma'naviy fazilatlar, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya: (A2), A2+

badiiy san'at va badiiy adabiyotlarda va aks etgan insonparvarlik, vatanparvarlik, g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, tushunib yetish, ulardan ta'sirlanish, asardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlik va jaholatdan nafratlana olish;

tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyati tasvirlangan badiiy asarlarni to'g'ri qabul qila olish va talqin eta olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay olish va tushuntirib berish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: (A2), A2+

hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini mustaqil tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurish;

hayot mobaynida turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish;

mehnat unumdorligini oshiradigan, inson mehnatini yengillashtira oladigan, va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda ulardan foydalana olishdan iborat[2;6-8 b].

Kompetensiyalar har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarning chuqur bilim olishlari va bilimlarini kundalik faoliyatida qo'llay olishlarini ta'minlashiga ko'ra belgilanadi. Jumladan, ona tili faniga doir kompetensiyalar: nutqiy va lingvistik kompetensiya hisoblanadi.

Ferdinand de Sossyur tilshunoslik fanining asosiy vazifasi til lingvistikasini o'rganishdir[3;76-b], deb ta'kidlaydi. U lingvistikani ichki va tashqi lingvistikaga ajratib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi, tilshunoslik fanining asosiy vazifasi ichki lingvistikani o'rganishi kerak deb hisobladi. Bu fan qadimdan yozuvni yaratish, o'qitish, boshqa tillarni tushunish kabi amaliy ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat qilgan. Hozirda esa uning amaliy ahamiyati yanada ortib, ona tilini o'qitish, chet tillarni o'rgatish, tarjima qilish, o'qitishni dasturlash kabi masalalar ham bu fanning vazifalariga aylandi.

X.Q.Qurbonova "Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida ona tilida ta'lim mazmunini yangilashda bir necha metodlardan foydalanishning ahamiyatini yoritishga harakat qilgan[4;79-b]. Ona tili darslarida o'quvchilarning

ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o‘z oldiga qo‘yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar. O‘quvchi topshiriqlarni ishlash sirlarini o‘rganib borgan sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi. Shuning uchun ona tili darslarida 6-sinflarda tayanch va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkoniyat yaratibgina qolmay, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga imkon beradi. Shunday ekan, ona tili darsliklariga kiritilgan har bir mavzu va topshiriqlar, avvalo shu maqsadga qaratilgan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo‘llashga o‘rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan davlat ta’lim standarti ta’lim jarayoniga qo‘llanilmoqda. Kompetensiyaviy ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlar yig‘indisini egallashnigina emas, balki shaxsni rivojlantirish, anglash va yaratish qobiliyatlarini o‘stirishni mo‘ljallaydi.Til ta’limini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda shu fanning o‘ziga xosligi mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch va har bir fanga doir kompetensiyalarni egallashi belgilangan. Bu tayanch kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

Kommunikativ kompetensiya - o‘quvchining ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, moslashuvchan va hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatiga ega bo‘lishini nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - darslik, o‘quv qo‘llanma va mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, media madaniyatga ega bo‘lish;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o‘zini o‘zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, hayotiy tajribasini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, mustaqil qaror qabul qila olish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya - sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda jadvalli ma’lumotlarni o‘qiy olishdan iborat.

Ona tili faniga tegishli bo‘lgan nutqiy va lingvistik kompetensiyalar quyidagilar bo‘lib:

o‘quvchilarni fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologoiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy maqsadi - kirishuvchan, yuzaga kelgan muammoning uch-to‘rt xil yechimini topa oladigan ijodkor o‘quvchini tarbiyalashdir.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni xal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqarish extiyojini yuzaga keltirmoqda.

O‘quv jarayonida ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his etish, tahlil qilish, qo‘shimcha vositalardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o‘qishga, fanga, o‘zi tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi, ta’limda samarali natijalarga erishiladi. Ta’lim texnologiyalari qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan axborotlarni izlab topishga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratiladi.

Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda “Tanishuv” texnologiyasini[5;47-b] namuna sifatida keltiramiz:

Texnologiyaning maqsadi:

o‘quv jamoasi ishtirokchilarini tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish.

o‘quvchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish.

sinf xonada ishlash uchun qulay sharoitni vujudga keltirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Mashg‘ulot boshida o‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi. Har bir kichik guruhga yilning bir faslida tug‘ilgan o‘quvchilarni kiritadi va quyidagi topshiriqni beradi:

o‘zingiz tug‘ilgan faslingizga xarakteristika bering (badiiy–musiqiy, sahnali, hazil – mutoyibali va hokazo ko‘rinishda);

yilning shu faslida tug‘ilganlarning umumiy xarakteri hamda guruh qatnashchilarning o‘xshashliklari va o‘ziga xos tomonlari bilan tanishtiring;

ushbu faslga tarif bering;

boshqa fasldagi guruh qatnashchilariga bag‘ishlangan fikr yoki bag‘ishlov yarating va ijodiy tilaklar bildiring.

O‘qituvchi o‘quvchilarni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi. O‘quvchilar berilgan topshiriqni o‘z vaqtida bajarishi uchun tayyorlanishga vaqt ajratiladi va ular uchun sharoit yaratiladi. Guruhlar tayyorgarlikni boshlaydilar. Ushbu chiqish adabiy-musiqiy kompozitsiya shaklida ham tayyorlanishi mumkin. “Tanishuv” texnologiyasining birinchi bosqichi orqali o‘quvchilarda o‘zaro tanishish va do‘stona munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda guruhlar tayyorlagan ijodiy chiqishlarini namoyish etadilar. Bunda o‘quvchilar 6-sinf ona tili darsligida berilgan mashqlardagi matnlar bo‘yicha fikr mulohaza bildiradilar. Ular matnlarga sarlavha qo‘yib, har biriga izoh beradilar. Dastlab matn turlari: “Hikoya matni”, “Tasviriy matn” va “Muhokama matni”[6;24-b] bo‘yicha yozilgan matnlarni o‘qib tahlil qiladilar.

Birinchi guruh: Hikoya matni haqida

Ikkinchi guruh: Tasviriy matn haqida

Uchinchi guruh: Muhokama matni haqida

1. guruh. Hikoya matni. ”Iftixor”[7;27-b].

“Nihoyat, Londondan Toshkentga uchadigan bo‘ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: «Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni “O‘zbekiston havo yo‘llari» milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!” Rostini aytsam, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so‘zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag‘in yuzlab xorijiy yo‘lovchilar o‘tirgan kemada!.. Aqalli mana shu holatning o‘zi uchun Istiqlolga ming bora ta’zim qilishga tayyorman!” (O‘tkir Hoshimov)

Birinchi guruh ishtirokchilari “Iftixor” sarlavhasi bilan berilgan matn, nega aynan hikoya matnida bo‘lgani va qanday hikoya berilganining ta’rifini aytadi.

2. guruh. Tasviriy matn. “Orol va daryo”[8;31-b].

“Orol o‘sha-o‘sha. Uzoqdan turib qarasang, ko‘z to‘ymaydi. Ilon kabi buralib oquvchi daryo shu yerga kelganda, ikkiga ajralgan, uch chaqirimdan so‘ng yana birlashadi. Qo‘shkokil yanglig‘ irmoq orasidagi orol esa yashnab turibdi. Na’matak, yovvoyi jiyda, baqaterak joy talashgandek ayqash-uyqash bo‘lib ketgan. Suvga egilib turgan jiyda barglari kumush kabi tovlanadi.Atrof sokinlik hukmida. Daryoning oqishi ham, oroldagi qalin daraxtzorning epkinda tebranishi ham ulug‘vor” (Tohir Malik)

Ikkinchi guruh ishtirokchilari “Orol va daryo” sarlavhali, tasviriy matnda nima berilgani va unda nimaning tasviri yoritilganini izohlaydi.

3. guruh. Muhokama matni. “Navro‘z”[9;34].

Navro‘z o‘zbek xalqining shunday bir qadriyatiki, u millatning borligini, ulug‘ligini namoyon etadi. Navro‘z hech bir shubhasiz, xalqimiz bilan birga yashab, birga ulg‘ayib, taraqqiy topgan bayramdir. Xalq tarixi va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan Navro‘z qanchalik ko‘hna ildizlarga ega bo‘lsa, ayni paytda shunchalik har yili biz bilan yonma-yon yangilanib, qayta quvvatga kiradi.Ushbu bayramga munosabat xalqimizning o‘tmishi, buguni va kelajagiga munosabatning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi (Sh.Turdimov. «Hikmatlar xazinasi» kitobidan)

Uchinchi guruh ishtirokchilari “Navro‘z” sarlavhali matnda nimaning muhokamasi berilgani va matn nima haqida ekanligini izohlaydi.

Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan ijodiy ishni to‘ldirishlari va mavzuga doir savollar berishlari mumkin. Savollar matn bo‘yicha bo‘lib, ular quyidagicha:

4. Hikoya matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Hikoya matnida muayan predmet yoki voqea-hodisalar haqida xabar beriladi, hikoya qilinadi.

5. Tasviriy matn deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar ta’riflangan, tavsiflangan matn tasviriy matn hisoblanadi.Tasviriy matn badiiy adabiyotda ko‘proq qo‘llanadi.

3. Muhokama matni deb nimaga aytiladi?

Javob: Muayyan predmet yoki voqea-hodisalar haqidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan matn muhokama matn hisoblanadi. Muhokama matni darsliklar va ilmiy kitoblarda ko‘proq qo‘llanadi.

Oxirgi bosqichda o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasar ekan, sinfxonaga quyidagi savollar bilan murojaat qilib, o‘quvchilarni ochiq muloqotga chaqiradi:

- Guruh ishtirokchilari, bir-birlaringiz haqida nimalarni bilib oldilaringiz?
- O‘quvchilarning muomala madaniyati qanday bo‘lishi kerak?
- Qaysi savollar va muammolar hal qilindi?
- Dars davomida matnning qanday turlarini tushunib oldik?
- Har biringiz o‘zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz?
- Demak biz, qandaymiz?

Berilgan savollarga o‘quvchilar o‘z fikr mulohazalarini bildiradi. Ushbu ochiq muloqot orqali har bir o‘quvchida erkin muloqotda bo‘lish va o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi rivojlantiriladi.

“Tanishuv” texnologiyasi natijasida o‘quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin:

o‘quvchilar bir-biri bilan do‘stona munosabatda bo‘ladi;

muloqot yuritishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga yordam beradi;

matnni tahlil qila olish va muomala qilish ko‘nikmalari takomillashtiriladi.

Bunda o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirmay, balki o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi.

O‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirish uchun erkinlik berish, uning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Bunday vaziyatda har qanday o‘quvchi o‘ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

Shu sababli quyidagi amaliy taklifni bildirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

oltinchi sinfda “Tanishuv” texnologiyani dars jarayonida muntazam qo‘llash o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va mustaqil fikrlashni oshiradi. Natijada o‘quvchilardagi qo‘rquv, ikkilanish holatiga barham beriladi.

har bir o‘quvchining fikrini diqqat bilan tinglash hamda matnni tahlil qilishiga e’tiborni qaratish kerak.

Buning uchun o‘qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o‘tish bilan chegaralanmasdan balki, zamonaviy ta’lim texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanib fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o‘quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Adabiyotlar

1. YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari. // O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri L.Saidova. – T.: “Adolat”, 2004. – B. 19-62.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son qarori.
3. Фердинанд де Соссюр. Курс общей лингвистики. Извлечения. Публикуется по книге: В.А.Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1. - Москва: Издательство “Просвещение”,1960.
4. Qurbonova X. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari. Pedagogika fanlari bo‘yicha dissertasiyasi. - Buxoro. 2005. 155 b.
5. Ishmuhamedov R.J., M.T.Mirsolieva “O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabieva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Tasvir” nashriyoti, 2017.
7. Hoshimov O‘. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”.-Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2015.
8. Malik T. “Davron” qissasi.”O`z lib” elektron kutubxona, 2011.
9. Turdimov Sh.N. ”Navro‘z - ardoqli ayyom”, ”Hikmatlar xazinasi” to‘plami.-Toshkent: ”Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2014.